

Fanlar akademiyasi olimlari tomonidan COVID-2019 RNKsini ajratish diagnostik to'plami ishlab chiqildi

Bugungi kunda dunyo miqyosida COVID-19 bilan kasallanganlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan COVID-19 ni diagnostika qilish uchun PSR usuli standart sifatida taklif qilingan. Ma'lumki, PSR diagnostika tahlilini amalga oshirish uchun dastlab COVID-19 koronavirus RNK sini ajratib olish talab etiladi. Joriy yil 15-mart kuni ilk bor O'zbekiston hududida SARS-CoV-2 virusi aniqlangandan so'ng, O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi instituti xodimlari ham COVID-2019 RNK sini ajratishga mo'ljallangan diagnostik to'plam ishlab chiqish ustida tadqiqotlarini boshladi va qisqa vaqt oralig'ida ushbu to'plamlar ishlab chiqildi.

Ushbu diagnostik to'plamning klinik sinovlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi laboratoriyalarida, shu jumladan, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligining maxsus laboratoriyasida o'tkazildi va ijobiy natijalarni ko'rsatdi. SARS-CoV-2 virusi RNK sini ajratishga mo'ljallab ishlab chiqilgan ushbu to'plam dunyoda ishlab chiqariladigan analoglari bilan taqqoslanganda sezgirligi, o'ziga xosligi, ayniqsa, kam vaqt talab qilishi (1 soat), qulayligi va arzonligi (kamida 30% ga arzonroq) kabi ustunliklarga ega. Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi "Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartizatsiyasi davlat markazi" DUK tashkilotida "ENKOR" nomi bilan ro'yxatdan o'tkazildi va seriyali ishlab chiqarish uchun ruxsat berildi. Bundan tashqari, ushbu to'plam yordamida gepatit V, gepatit C, odam immun tanqisligi virusi (VICH) RNK/DNKsini ajratish mumkin.



Ishlab chiqilgan diagnostik to'plamlar mamlakatimizga xorijdan keltiriladigan narxdagi to'plamlarning o'rnini bosishga imkoniyat yaratadi. Institut yuqorida keltirilgan to'plamlarni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan talab bo'lsa, kerakli miqdorda ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.